



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2023-yil 19-oktabr, № 222 (8565)

Yakshanba Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## “YASHIL IPAK YO'LI”NI BARPO ETISH YO'LIDAGI MUHIM TASHABBUSLAR VA SAMARALI MULOQOTLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan 17-18-oktabr kunlari “Bir makon, bir yo'l” uchinchi xalqaro forumida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Pekin shahrida bo'ldi.



第三届“一带一路”国际合作高峰论坛绿色发展高级别论坛  
THE THIRD BELT AND ROAD FORUM FOR INTERNATIONAL COOPERATION  
HIGH-LEVEL FORUM ON GREEN DEVELOPMENT



Davlatimiz rahbari 18-oktabr kuni “Bir makon, bir yo'l” uchinchi xalqaro forumining ochilish marosimida hamda “Inson va tabiat uyg'unligi yo'lida” “Yashil Ipak yo'lini” birgalikda barpo etish” mavzusidagi yalpi yig'ilishida ishtirok etdi.

Xitoy vitse-prezidenti Xan Chjen moderatorligida o'tgan sammit ishida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish, davlat va hukumatlar yetakchilari, moliyaviy institutlar rahbarlari ham qatnashdi. Prezidentimiz o'z nutqida barcha

ishtirokchilarni “Makon va yo'l” tashabbusining o'n yilligi bilan samimiy qutladi. Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklashga qaratilgan ushbu ulug'vor g'oya tarixan qisqa davrda ko'plab tarafdorlariga ega bo'lgani va xalqaro hamkorlikning

yangi modeliga aylangani ta'kidlandi. Xitoyning har tomonlama strategik sherigi sifatida O'zbekiston birinchilardan bo'lib “Makon va yo'l” tashabbusini qo'llab-quvvatlaymiz va mazkur tashabbusning asosiy maqsad va vazifalarini yanada ilgari surishning qat'iy tarafdoridir.

Davlatimiz rahbari “Yashil Ipak yo'li” tashabbusi mohiyat e'tibori bilan umumiy “yashil” kelajak kun tartibini shakllantirishini ta'kidladi. XRR Raisi Si Szinpin tomonidan ilk bor 2016-yilda aynan bizning mamlakatimizda ilgari surilgan ushbu

tashabbusni O'zbekiston har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Matbuot xizmati suratlari.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “BIR MAKON, BIR YO'L” UCHINCHI XALQARO FORUMIDAGI NUTQI

Hurmatli Guterrish janoblari!  
Hurmatli Xan Chjen janoblari!  
Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!  
Xonimlar va janoblari!

Avvalo, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin janoblariga “Bir makon, bir yo'l” uchinchi xalqaro forumida ishtirok etishga taklif qilgani hamda iliq qabul uchun samimiy minnatdorlik bildiraman.

“Makon va yo'l” tashabbusining o'n yilligi munosabati bilan xitoylik do'stlarimiz hamda tadbirning barcha ishtirokchilari nomiga bildirilgan tabrik so'zlariga qo'shilaman. Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklashga qaratilgan ulug'vor g'oya tarixan qisqa davrda ko'plab tarafdorlariga ega bo'ldi va xalqaro hamkorlikning yangi modeliga aylandi. U umumiy taraqqiyot va farovonlikka erishish yo'lidagi zaruriy, inklyuziv va ochiq platformaga aylandi.

Jahondagi yetakchi davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch inqirozi tufayli vujudga kelgan hozirgi geosiyosiy beqarorlik sharoitida ushbu dasturning o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Xitoyning har tomonlama strategik sherigi sifatida O'zbekiston birinchilardan bo'lib “Makon va yo'l” tashabbusini qo'llab-quvvatlaganini alohida ta'kidlashni istardim. Biz mazkur tashabbusning asosiy maqsad va vazifalarini yanada ilgari surishning qat'iy tarafdorimiz.

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Xitoyning “Yashil Ipak yo'li” tashabbusi mohiyat e'tibori bilan umumiy “yashil” kelajak kun tartibini shakllantiradi, deb hisoblaymiz. Ushbu g'oya Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin janoblari tomonidan ilk bor 2016-yilda aynan bizning mamlakatimizda e'lon qilingani chuqur ramziy ma'noga ega.

O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo jahondagi iqlim o'zgarishi oqibatlaridan eng ko'p zarar ko'rayotgan mintaqalardan biri ekanini ta'kidlamochim.

Hozirgi vaqtda bizning mintaqamiz mamlakatlari global isish, ekologik muvozanat buzilishining anomal ob-havo sharoitlari, tez-tez yuz berayotgan qurg'oqchilik va chang bo'ronlari, yerlarning shiddat bilan degradatsiyaga uchrashi va cho'lanishi, bioxilmaxillikning yo'qolishi ko'rinishida namoyon bo'layotgan jiddiy tahdidlarini o'zida to'liq his etmoqda.

Birgina misol — ko'p yillik kuzatishlar bugungi kunda Markaziy Osiyoda o'rtacha havo haroratining oshib borishi dunyodagi umumiy ko'rsatkichlardan ikki marta yuqori ekanini ko'rsatmoqda.

Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida qabul qilingan maxsus rezolyutsiya doirasida Orolbo'yida ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududlarini yaratish bo'yicha keng ko'lami dasturni amalga oshirmoqdamiz.

O'zbekiston joriy yilning sentyabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tashabbusiga ko'ra bo'lib o'tgan iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ulkan vazifalar sammitini ham yuqori baholaydi hamda mazkur anjuman yakunlarining tezroq amalga oshirilishiga umid bildiradi.

Biz 2024-yil Markaziy Osiyoda “yashil” taraqqiyot sohasidagi maqsadlarga erishish yo'lida fikr almashish va sa'y-harakatlarni birlashtirish uchun Samarqand xalqaro iqlim forumini o'tkazishni niyatidamiz.

Umid qilamizki, ushbu forum barqaror rivojlanish yo'lidagi global xavf-xatarlarga javob topish uchun “Kelajak uchun — Samarqand

muloqoti”ni tashkil etishda amaliy qadam bo'lib xizmat qiladi.

Hurmatli sammit ishtirokchilari! O'zbekiston “Yashil Ipak yo'li” doirasida keng ko'lami xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor.

Shu munosabat bilan Xitoy hamda “Makon va yo'l” sammitining boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha fikrlarimiz bilan o'rtoqlashmochim.

Birinchidan, birgalikdagi sa'y-harakatlarimizni yanada yaqindan muvofiqlashtirish maqsadida “Markaziy Osiyoning “yashil” kun tartibi” va “Yashil Ipak yo'li” konseptual tashabbuslarining o'zaro bog'liq holda amalga oshirilishi tarafdorimiz.

Quyidagi muhim vazifalarning amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida keng ko'lami “Yashil taraqqiyot dasturi”ni ishlab chiqishni taklif etamiz: iqtisodiyot tarmoqlarini “yashil” taraqqiyot talablari asosida transformatsiya qilish va raqamlashtirish, transport va energetika tarmoqlarida barqaror infratuzilmani yaratish, “yashil” sanoat quvvatlarini ishga tushirish, kambag'allikni qisqartirish va “aqli” qishloq xo'jaligini rivojlantirish.

Ikkinchidan, “yashil” ishlab chiqarish zanjirlari va innovatsiyalarni rivojlantirish sohasida amaliy hamkorlikni kengaytirishni muhim, deb hisoblaymiz.

Xitoyning yetakchi kompaniyalari bilan birgalikda va boshqa xorijiy hamkorlarni jalb etgan holda, “yashil texnologiyalar”ni keng joriy qilish asosida sanoat sohasida va muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan dasturlarni amalga oshirish uchun Orolbo'y mintaqasida Maxsus

namunalni texnologik parkni tashkil etishga tayyormiz.

Uchinchidan, Xitoyning “Makon va yo'l” dasturining “yashil” investitsiyalar tamoyillari” borasidagi tashabbusini qo'llab-quvvatlaymiz va uni amalga oshirishda ishtirok etish niyatidamiz. O'zbekistonda “Yashil moliyalashtirish” jamg'armasini ta'sis etishni taklif qilamiz. Ushbu jamg'arma kam uglerodli iqtisodiyot va “toza” texnologiyalarni rivojlantirish, shuningdek, mintaqa mamlakatlarida yuqori ekologik standartlarni joriy etish uchun moliyaviy resurslarni safarbar qilishning ta'sirchan vositasiga aylansin.

To'rtinchidan, biz “Makon va yo'l” dasturida ishtirok etayotgan mamlakatlarni “yashil” mahsulotlar, ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'zaro savdosidagi cheklov va to'siqlarni kamaytirishga chaqiramiz.

Beshinchidan, “yashil” energiyaga o'tish bo'yicha muloqotni faollashtirish va “Makon va yo'l” tashabbusiga qo'shilgan mamlakatlar vazirlarining muntazam uchrashuvlarini o'tkazishni muhim, deb bilamiz.

Aminmizki, bu qayta tiklanadigan energiya sohasida xalqaro kun tartibini kengaytirish bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Oltinchidan, Orolbo'y xalqaro innovatsiyalar markazi negizida “yashil” bilim va yechimlarni transfer qilish bo'yicha ilmiy-axborot platformasini ishga tushirishni taklif etamiz.

Yettinchidan, biz Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti negizida “Yashil” taraqqiyot va ekologiya sohasida mutaxassislar tayyorlash va akademik

almashuvni rivojlantirish bo'yicha qo'shma dastur ishlab chiqish tarafdorimiz.

Bu borada Xitoy hamda “Makon va yo'l” tashabbusining boshqa ishtirokchi mamlakatlari yetakchi oliygohlari va ta'lim markazlari bizning sheriklarimiz sifatida ishtirok etishlari mumkin.

Va nihoyat, biz jamiyatda tabiiy resurslar va atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish bo'yicha an'anaviy qadriyatlarini qaror toptirmasdan turib, “yashil” taraqqiyotga o'tish mumkin emas, deb hisoblaymiz.

Shu munosabat bilan “Bir makon, bir yo'l” tashabbusi doirasida “yashil” madaniyatni rivojlantirish bo'yicha Global dasturni ishga tushirishni va unda etno-ekologik festivallar, forumlar, mamlakatlarimizdagi tanikli jamoat arboblari, fan, biznes va madaniyat namoyandalari ishtirokida taqdimotlar va tadbirlarni o'tkazishni nazarda tutishni taklif etamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Xonimlar va janoblari! Donishmand xitoy xalqining maqolida aytilganidek, “Kelgusi asrning baxti ushbu asrda quriladi”.

Bugun biz sa'y-harakatlarimizni birlashtirgan va kuchaytirgan holda insoniyatning “yashil” kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratmoqdamiz.

Ishonchim komilki, bugungi uchrashuvimiz yakunlari, bildirilgan g'oya va takliflar bizning ana shu ezig maqsadga erishish yo'lidagi umumiy aniq hissamiz bo'ladi.

Barchangizga muvaffaqiyatlar tilayman. E'tiboringiz uchun rahmat.

### Dunyo nigohi

## O'ZBEKISTON RAHBARINING TAKLIFLARI “BIR MAKON, BIR YO'L” KONSEPSIYASINI MINTAQAVIY RIVOJLANISHNING ANIQ DASTURLARI BILAN BOYITDI

17-18-oktabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi. Davlatimiz rahbari tashrif chog'ida “Bir makon, bir yo'l” uchinchi xalqaro forumining tadbirlarida ishtirok etdi va yalpi majlisda nutq so'zlandi. Shuningdek, Xitoy Raisi Si Szinpin va Xalq siyosiy maslahat kengashi Butunxitoy qo'mitasi raisi Van Xunin bilan muzokaralar o'tkazdi, tashrif davomida boshqa ikki tomonlama uchrashuvlar ham bo'lib o'tdi.



### Nuqtai nazar

## DO'STONA MUNOSABATLAR INSONIYATNI FAROVONLIKKA YETAKLAYDI

Ochiq va pragmatik tashqi siyosat olib borayotgan O'zbekistonning xalqaro maydonda do'stlari ko'p. Ulardan biri — iqtisodiy salohiyati bo'yicha dunyoning ikkinchi davlati, BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt bozorida o'z o'rniga ega bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi. Ijtimoiy hayotning barcha sohasida islohotlar o'tkazayotgan, xalqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'lib borayotgan mamlakatimiz uchun Xitoy bilan do'stona va strategik munosabatlarni chuqurlashtirish tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridandir.

So'nggi ikki kun davomida Xitoy poytaxti Pekinda bo'lib o'tgan “Bir makon, bir yo'l” uchinchi xalqaro forumida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning ishtirok etgani ham muhim ahamiyatga ega. Zero, unda ochiqlikka asoslangan jahon iqtisodiyotini rivojlantirish uchun

o'zaro bog'liqlikni chuqurlashtirish, “Yashil Ipak yo'li”ni birgalikda qurish, “raqamli” iqtisodiyotni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishning yangi drayverlari, to'siqsiz savdo, xalqlar o'rtasidagi aloqalar, mintaqaviy va dengiz sohasidagi o'zaro hamkorlik masalalari muhokama qilingani

tufayli dunyo e'tiborini o'ziga tortdi. Forum doirasida Prezidentimiz Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin bilan muzokaralar o'tkazdi. Unda O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi do'stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi. Davlatimiz rahbari, shuningdek, forumda nutq so'zlab, mintaqaviy va global ahamiyatga ega masalalar bo'yicha bir qator tashabbuslarni ilgari surdi.

“Bir makon, bir yo'l” konsepsiyasi haqida so'z borar ekan, avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi

paytda Xitoy Xalq Respublikasi Osiyodan tortib Amerikagacha turli davlatlar jamoatchiligi nigohida ijobiy imijini shakllantirish maqsadida xalq diplomatiyasi vositalarini faollashtirgan. Mamlakat o'ziga xos strategiyasini aynan shu “Bir makon, bir yo'l” konsepsiyasi asosida olib bormoqda. Ushbu tashabbus zamonaviy Xitoyning uzoq tarix bilan uzviy aloqador bo'lib, qadimiy Ipak yo'li ta'sirida shakllangan. “Ipak yo'li” majoziy iborasi tarixiy ahamiyatga da'vogarlik qiladigan transport yo'laklariga nisbatan yaqinda qo'llanila boshlandi.



# “YASHIL IPAK YO‘LI”NI BARPO ETISH YO‘LIDAGI MUHIM TASHABBUSLAR VA SAMARALI MULOQOTLAR

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Mintaqamizdagi anomal ob-havo sharoitlari, tez-tez yuz berayotgan qurg'oqchilik va chang bo'ronlari, yerlarning shiddat bilan degradatsiyaga uchrashi va cho'llanishi, bioxilmaxillikning yo'qolishi ko'rinishida namoyon bo'layotgan murakkab ekologik vaziyatga to'xtalib, davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo jahondagi iqlim o'zgarishi oqibatlaridan eng ko'p zarar ko'rayotgan mintaqalardan biri ekanini qayd etdi.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan maxsus rezolyutsiya doirasida Orolbo'yida ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududlarini yaratish bo'yicha keng ko'lamli dasturi amalga oshirayotgani ta'kidlandi.

Shu ma'noda, joriy yilning sentyabr oyida BMT Bosh kotibi tashabbusiga ko'ra o'tkazilgan iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ulkan vazifalar sammiti yakunlariga yuqori baho berildi.

Markaziy Osiyoda "yashil" taraqqiyot sohasidagi maqsadlarga erishish yo'lida fikr almashish va sa'y-harakatlarni birlashtirish uchun O'zbekiston rahbari 2024-yilda Samarqand xalqaro iqlim forumini o'tkazish tashabbusi bilan chiqdi.

Umid qilamizki, ushbu forum barqaror rivojlanish yo'lidagi global xavf-xatarlarga javob topish uchun "Kelajak uchun — Samarqand muloqoti"ni tashkil etishda amaliy qadam bo'lib xizmat qiladi, — dedi Prezidentimiz.

Mamlakatimiz "Yashil Ipak yo'li" doirasida keng ko'lamli xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor ekani qayd etildi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston yetakchisi Xitoy hamda "Makon va yo'l" tashabbusining boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha fikrlari bilan o'rtoqlashdi.

"Markaziy Osiyoning "yashil" kun tartibi" va "Yashil Ipak yo'li" konseptual tashabbuslarini o'zaro bog'lash doirasida iqtisodiyot tarmoqlarini "yashil" taraqqiyot talablari asosida transformatsiya qilish va raqamlashtirish, transport va energetika tarmoqlarida barqaror infratuzilmani yaratish, "yashil" sanoat quvvatlarini ishga tushirish, kambag'allikni qisqartirish va "aqli" qishloq xo'jaligini rivojlantirish choralarini va loyihalarni o'z ichiga olgan "Yashil" taraqqiyot dasturini ishlab chiqish taklif etildi.

"Yashil Ipak yo'li"ni barpo etish yo'lidagi yana bir muhim vazifa — "yashil" ishlab chiqarish zanjirlari va innovatsiyalarni rivojlantirish.

Xitoyning yetakchi kompaniyalari bilan birgalikda va boshqa xorijiy hamkorlarni jalb etgan holda, "yashil texnologiyalar"ni keng joriy qilish asosida sanoat sohasida va muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan dasturlarni amalga oshirish uchun Orolbo'y mintaqasida Maxsus namunali texnologik parkni tashkil etishga tayyorlik bildirildi.

Davlatimiz rahbari kam uglerodli iqtisodiyot va "toza" texnologiyalarni rivojlantirish, shuningdek, mintaqa mamlakatlari yuqori ekologik standartlarni joriy etish maqsadida O'zbekistonda "Yashil moliyalashtirish" jamg'armasini ta'asis etishni taklif qildi.

Shuningdek, O'zbekiston yetakchisi "yashil" mahsulotlar, ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'zaro savdo-

sidagi cheklov va to'siqlarni kamaytirishga chaqirdi.

"Yashil" energetikaga o'tish bo'yicha muloqotni faollashtirish va "Makon va yo'l" tashabbusiga qo'shilgan mamlakatlar vazirlarining muntazam uchrashuvlarini o'tkazish taklifi bildirildi.

O'zbekiston Prezidenti Orolbo'y xalqaro innovatsiyalar markazi negizida "yashil" bilim va yechimlarni transfer qilish bo'yicha ilmiy-axborot platformasini ishga tushirish tashabbusini ilgari surdi.

"Yashil" taraqqiyot va ekologiya sohasi uchun malakali kadrlar tanqisligi ortib borayotganini hisobga olib, davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti negizida yetakchi xorijiy oliyog'ohlar va ta'lim markazlari bilan hamkorlikda "Yashil" taraqqiyot va ekologiya sohasida mutaxassislar tayyorlash va akademik almashuvni rivojlantirish bo'yicha o'shma dastur ishlab chiqishni taklif etdi.

Bundan tashqari, Prezidentimiz tabiiy resurslar va atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish masalasiga to'xtaldi.

"Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida taniqli jamoat arboblari, fan, biznes va madaniyat namoyandalari ishtirokida etno-ekologik festivallar, forumlar, taqdimotlar va boshqa tadbirlar o'tkazishni nazarda tutuvchi "yashil" madaniyatni rivojlantirish bo'yicha Global dasturini ishga tushirishni taklif qildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev so'zining yakunida forum yakunlari, unda bildirilgan g'oya va takliflar insoniyatning "yashil" kelajagini barpo etish yo'lida muhim hissa bo'lishiga ishonch bildirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoyga tashrifin-

ing ikkinchi kuni Xalq siyosiy maslahat kengashi Butunxitoy qo'mitasi Raisi Van Xunin, "China CAMC Engineering" kompaniyasi raisi Van Bo, "China Energy Engineering Corporation" raisi Sun Xaylyan, "State Grid" kompaniyasi raisi Sin Baoan bilan uchrashuv o'tkazdi.

Xalq siyosiy maslahat kengashi Butunxitoy qo'mitasi Raisi Van Xunin davlatimiz rahbari "Makon va yo'l" uchinchi xalqaro forumida ilgari surgan muhim tashabbuslarni yuksak baholadi va buning uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

O'zbekiston — Xitoy do'stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari yanada kengaytirish va mustahkamlash istiqbollari muhokama qilindi.

Konstruktiv siyosiy muloqotning bugungi darajasi va xalqaro tashkilotlar doirasidagi o'zaro ko'mak alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

Samarqand va Sian shaharlarida o'tgan sammitlar davomida erishilgan kelishuvlar izchil amalga oshirilmog'da.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik ijobiy sur'at bilan rivojlanib bormog'da. Hududlar o'rtasidagi aloqalar faollashdi. Oxirgi oylarda O'zbekistonga Shinjon-Uyg'ur avtonom hududi, Shandun, Shensi, Szansu va Szynsi muzofotlari delegatsiyalari tashrif buyurdi.

Madaniy-gumanitar aloqalar va ta'limdagi almashinuvni faollashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

"CAMCE" Xitoyning injiniring xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda sanoat va infratuzilma sohasidagi yirik investitsiya loyihalarni amalga oshiruvchi yetakchi korporatsiyasidir.

Kompaniya yurtimizda katta ish tajribasiga ega. Bugungi kunda "CAMCE" 2025-yilda O'zbekistonda o'tkaziladi-

gan yoshlar o'rtasidagi Osiyo o'yinlariga tayyorgarlik doirasida olimpiya shaharchasi qurilishida ishtirok etmog'da.

"China CAMC Engineering" kompaniyasi raisi Van Bo bilan uchrashuvda qo'shma loyihalarni ko'paytirishning amaliy jihatlari, jumladan, mamlakatimiz hududlarida gidrotexnik inshootlar va Yangi Toshkentda zamonaviy infratuzilmani barpo etish, ilg'or agrotexnologiyalarni joriy qilish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari qo'shma loyihalar va erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha alohida "Yo'l xaritasi"ni qabul qilishga topshiriq berdi.

Zamonaviy energetika, infratuzilma va sanoat obyektlarini loyihalashtirish va qurish borasida katta tajribaga ega Xitoyning "China Energy" yetakchi korporatsiyasi dunyoning ko'plab mamlakatlarda yirik investitsiya loyihalarni amalga oshirmog'da. Kompaniya aktivlarining qiymati 150 milliard dollardan ortiq.

"China Energy Engineering Corporation" raisi Sun Xaylyan bilan uchrashuvda kompaniya O'zbekiston energetika texnologik modernizatsiya qilishda faol ishtirok etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

"China Energy" Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida quyosh va shamol elektr stansiyalari, Sirdaryo viloyatida issiqlik elektr stansiyasini qurish loyihalarni amalga oshirmog'da.

Kompaniya Navoiy viloyatida gidrid elektr stansiyasini barpo etishda ishtirok etish niyatida.

Bundan tashqari, joriy yil sentyabr oyida Samarqand viloyatida sement ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy quvvatlar birgalikda ishga tushirildi.

"China Energy" bilan sheriklik istiqbollari, shu jumladan, infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish, energiyani saqlash tizimlarini tashkil etish, energetika tarmog'ini 2030-yilgacha rivojlantirish dasturi doirasida malakali mutaxassislarni tayyorlash masalalari muhokama qilindi.

Suv xo'jaligida kooperatsiya qilish, sanoatning turli tarmoqlarida qo'shma loyihalarni amalga oshirishga ham alohida e'tibor qaratildi.

Uchrashuv yakunida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish bo'yicha kompleks dasturi tayyorlash yuzasidan kelishuvga erishildi.

Xitoyning "State Grid" elektr tarmoqlari korporatsiyasi ushbu sohada global yetakchi bo'lib, "Fortune Global 500" reytingida yuqori o'rinlarni egallab kelmog'da.

Kompaniya elektr uzatish tarmoqlarini barpo etish va ularni ekspluatatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli loyihalarni amalga oshirish borasida, shu jumladan, xorijiy mamlakatlarda katta tajribaga ega. Aktivlari qiymati 800 milliard dollar atrofida.

"State Grid" kompaniyasi raisi Sin Baoan bilan ushbu kompaniya istirokida istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, jumladan, yuqori voltli elektr uzatish liniyalarini qurish va infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish, bunda ilg'or injiniring yechimlari va yuksak texnologiyalarni joriy etish masalalari muhokama qilindi.

Mamlakatimiz energetika tarmog'ini uchinchi yil malakali mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi.

Qo'shma loyihalarni jadallashtirishga qaratilgan "Yo'l xaritasi"ni qabul qilishga kelishib olindi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xitoy Xalq Respublikasiga amaliy tashrif yakunlandi.

O'ZA.

## O'ZBEKISTON RAHBARINING TAKLIFLARI "BIR MAKON, BIR YO'L" KONSEPSIYASINI MINTAQAVIY RIVOJLANISHNING ANIQ DASTURLARI BILAN BOYITDI

XXR Raisi Si Szipin bilan muzokaralarda O'zbekiston — Xitoy do'stona munosabatlari va har tomonlama strategik sheriklikni yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston Prezidentining Xitoyga amaliy tashrifi, davlatimiz rahbarining ko'p tomonlama va ikki tomonlama tadbirlarda samarali ishtiroki xorijiy ekspertlar va tahlilchilarning ham e'tiborini tortdi.

**Nine LINDE, Latviya Fanlar akademiyasi Iqtisodiyot institutining direktori:**

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xitoyga amaliy tashrifi, shuningdek, O'zbekiston rahbarining "Bir makon, bir yo'l" uchinchi xalqaro forumida ishtiroki Toshkentning nufuzli xalqaro platformalar doirasida har tomonlama hamkorlikni kengaytirishga bo'lgan intilishlariga to'la mos keladi. Ulardan biri, shubhasiz, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusidir.



O'zbekiston yetakchisining nutqida qayd etilgan jahon ochiq iqtisodiyotini rivojlantirish uchun o'zaro bog'liqlikni chuqurlashtirish, "Yashil Ipak yo'li"ni birgalikda barpo etish, raqamli iqtisodiyot, to'siqlarsiz savdo, xalqlar o'rtasidagi aloqalar, iqtisodiy o'sishning yangi harakatlaniruvchi kuchlari, aql markazlarining o'zaro hamkorligini rivojlantirish va mintaqaviy aloqalarni mustahkamlash xalqaro hamkorlikning yangi modelini shakllantirish va ilgari surishga, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini nufuzli ko'p tomonlama formatlardan biri sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston rahbarining global erkin savdo rejimini qo'llab-quvvatlash, transport va logistika yo'laklarini modernizatsiya qilish hamda savdo aloqalarini optimallashtirishga davlati Buyuk Ipak yo'li bo'yab Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo va Yevropa mamlakatlari o'rtasida transport, savdo, energetika yo'laklarini rekonstruksiya qilish uchun zarur shart bo'ladi.

**Klod LEBLAN, Fransiya yuldar yetakchi "l'Opinion" nashri jurnalisti:**

— O'zbekiston Prezidentining "Bir makon, bir yo'l" uchinchi xalqaro forumida ishtirok etish uchun Xitoyga buyurgan amaliy tashrifi, shuningdek, tadbir doirasida Xitoy Raisi Si Szipin bilan uchrashuvi Fransiya ekspert-tahlil doiralari vakillarida katta qiziqish uyg'otdi.

Dunyoda davom etayotgan geosiyosiy keskinliklar, beqaror iqtisodiy vaziyat sharoitida investitsiya, savdo va logistika sohasidagi o'zaro hamkorlikning faollashuvi nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi ravnaqi va xavfsizligining garovi bo'ladi.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar hozirgi xalqaro muhitda munosib o'zgarishlarni boshdan kechirayotgani, mavjud qiyinchiliklarga qaramay, rivojlanishning ijobiy o'suvchanligini namoyish etayotgani hamda tenglik va o'zaro hurmat asosida zamon talablariga muvofiq yangi amaliy mazmun bilan to'dirilayotgani quvonarli holdir.

O'zbekiston Prezidentining Xitoyga amaliy tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlar ikki davlatning munosabatlari sifat jihatidan yangi, yuqori bosqichga olib chiqishiga, o'zaro ishonch va sheriklik munosabatlari mustahkamlanishiga, ikki mamlakatning uzoq muddatli manfaatlarini hisobga olgan holda savdo, transport va investitsiya sohasidagi hamkorlikni, sanoat kooperatsiyasi, elektron tijorat jabhalari qurish shakllari yanada ravnaq toptirishga xizmat qiladi.

**Xolid MAHMUD, Pokistondagi "Novugen Pharma" kompaniyasi asoschisi:**



— Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xitoyga amaliy tashrifi o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Har ikkala mamlakat Pokistonning mintaqadagi eng muhim strategik sheriklari hisoblanadi. Bundan tashqari, Pokiston ham "Bir makon, bir yo'l" tashabbusining ishtirokchisi. Shu kunlarda bizning mamlakatimizning siyosiy rahbariyati ham Xitoyda bo'lib turibdi.

Kambag'allikka qarshi kurash Pokiston uchun ham, O'zbekiston uchun juda katta hamiyatga ega. Shuning uchun kambag'allik va ihsizlikka qarshi kurashda Xitoy tajribasini o'rganish va joriy etish sohasidagi amaliy hamkorlik mamlakatlarimizning iqtisodiy qoloch mintaqalarini rivojlantirishda qo'l keladi.

Biznesni boshlash uchun imtiyozli moliyalashtirish elementlarini joriy etish, XXR tajribasi bo'yicha aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini hamda ihsizlarni maqsadli himoya qilish mamlakatlarimizda faol ravishda hayotga tatbiq etilmog'da. Shuni alohida qayd etish joizki, davlatning ko'magi muhtojlarni ma'naviy jihatdan ham qo'llab-quvvatlaydi, ular kambag'allik bilan yolg'iz qolganlarni his qilishida va bu o'zlariga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Hozirgi global geosiyosiy qarama-qarshiliklar davrida O'zbekiston rahbari Xitoy hamda Osiyo — Tinch okeani mintaqasining boshqa mamlakatlari bilan uzoq muddatli va yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'ladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Raisi Si Szipin bilan bo'lib o'tgan uchrashuvi chog'ida o'zaro tovar aylanmasi hajmini 20 milliard dollarga yetkazish, yuqori texnologiyalar sohasida, muqobil energetika, kimyo, mashinasozlik, metallurgiya, elektrotexnika, infratuzilmani modernizatsiya qilish va boshqa yo'nalishlarda investitsiya loyihalari birgalikda amalga oshirishga kelishib olindi.

O'zbekiston va Pokiston ham bu yil o'zaro savdoni 1 milliard dollarga yetkazish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni qabul qildi.

Sirdaryo viloyatida tashkil etilgan "Novugen Pharma" kompaniyamiz bir necha yillardan buyon O'zbekiston farmatsevtika bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmog'da. Bu O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi sanoat kooperatsiyasining yorqin namunasidir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning mintaqalararo aloqalarni faollashtirish to'g'risidagi taklifi alohida e'tiborga loyiq. O'zbekiston va Pokiston allaqachon bu yo'nalishdagi ishlarni boshlab yuborgan. Masalan, o'tgan davr mobaynida Pokistonga O'zbekistonning Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlari hokimliklari va ishbilardon doiralari

delegatsiyalari kelishdi, joriy yilda esa Panjob viloyati rahbariyati O'zbekistonning Toshkent, Buxoro va Samarqand viloyatlarida bo'ldi.

Pokiston jug'rofiy va tarixiy jihatdan O'zbekistonga yaqindir. Xitoy bilan umumiy chegaraga egamiz. Bizlar asrlar davomida bu birodar mamlakatlar bilan transport yo'laklari orqali bog'lanib kelganimiz.

Shu bois O'zbekiston — Qirg'iziston — Xitoy temir yo'li qurilishining boshlangani bizlarni ruhlantirdi. Bu loyiha Transaf'on temir yo'li bilan birgalikda Xitoyni Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan bog'laydigan yo'nalishning ajralmas qismiga aylanadi.

**Andrey XRIYENKO, Rossiyada faoliyat ko'rsatadigan "Vektor" xalqaro strategik tadqiqotlar institutining direktori:**



— Shuni ta'kidlashni istardimki, "Bir makon, bir yo'l" 3-xalqaro forumi bugungi kundagi mintaqaviy va global xalqaro kun tartibi, jumladan, MDH mamlakatlari uchun juda muhim voqea hisoblanadi.

"Bir makon, bir yo'l" tashabbusini amalga oshirish jarayoni tez sur'atlar bilan davom etmog'da. Men shu o'rinda ushbu konsepsiyaning eng muhim ishtirokchisi bo'lgan Markaziy Osiyo mintaqasining asosiy hal qiluvchi sherik sifatida o'rinni qayd etishni istar edim.

Bu jarayonni amalga oshirishda O'zbekiston muhim ahamiyat kasb etishni alohida ta'kidlash joiz. Ayni paytda Toshkent ushbu tashabbusning faol ishtirokchisi bo'lib, ko'plab loyihalarni ilgari surmog'da va muvaffaqiyat bilan hayotga tatbiq etmog'da.

Shuningdek, O'zbekistonning xalqaro kun tartibidagi eng dolzarb masalalar bo'yicha ancha faol o'miga urg'u bermaslikning iloji yo'q. Buni Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu tadbirda konstruktiv takliflar bildirgan tashqi siyosiy faoliyati bilan ham baholash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuni ham ta'kidlashni istardimki, barcha xalqaro forumlar va yuqori darajadagi tadbirlarda O'zbekiston rahbari juda muhim takliflarni ilgari suradi.

**Xari NARAYANANA, Malayziyaning Osiyo — Tinch okeani texnologiya va innovatsiyalar universiteti rektori:**



— "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi — bu turli qit'alarda joylashgan mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, jumladan, yanada qulay sharoitlar yaratish orqali savdo va investitsiya, transport-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, turizm, ta'lim va madaniyat sohasidagi sheriklik salohiyatini mustahkamlash vositasida Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklashga qaratilgan asr loyihasi hisoblanadi.

Shu munosabat bilan mamlakatning xalqaro dengiz bandargohlariga chiqish zarurligi hisobga olinar ekan, O'zbekistonning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini amalga oshirishdagi ishtiroki juda muhim ekanligi ayon bo'ladi. Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'lining qurilishi Markaziy Osiyo mintaqasini Xitoy orqali Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo, jumladan, Malayziya bozortari bilan

bog'laydigan transport va logistika yo'nalishlarini rivojlantirishga xizmat qilishi, shubhasiz, deb o'ylaymiz.

O'zbekiston rahbarining takliflari "Bir makon, bir yo'l" konsepsiyasini Markaziy Osiyoda transport, savdo, investitsiya, energetika va yuqori texnologiyalar, sog'liqni saqlash, turizm, madaniy-gumanitar almashuvlar sohasidagi yirik loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi aniq mintaqaviy rivojlanish dasturlari bilan boyitdi.

Bundan tashqari, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan taqdirida O'zbekiston iqtisodiy gigantlar — YI va Xitoy o'rtasidagi tranzit arteriyasida iqtisodiy ko'priklar bo'lishi mumkin.

**Rudi FANG, Singapurda "CASEA" Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyo biznes palatasi bosh direktori, O'zbekiston — Singapur turizmni rivojlantirish markazi rahbari:**



— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Pekinda bo'lib o'tgan "Bir makon, bir yo'l" uchinchi xalqaro forumidagi ishtirokini katta qiziqish bilan kuzatdim.

Nazarimda, bu yil "Umumiy taraqqiyot va farovonlik yo'lida "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasidagi yuqori sifatli hamkorlik" mavzuida o'tgan anjuman g'loballashib borayotgan dunyoning zamonaviy chaqirig'lariga to'la javob beradi. Ochiq global iqtisodiyotni rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash, savdo aloqalarini mustahkamlash va eng muhim, odamlarni va tahlil markazlarini birlashtirish katta ahamiyatga ega.

2013-yili XXR rahbari Si Szipin tomonidan ilgari surilgan "Bir makon, bir yo'l" loyihasida muassamlashgan g'oyalar Xitoyning xalqaro hamkorlikni rivojlantirish istagini namoyish etadi.

Ushbu ulug'vor tashabbusni hayotga tatbiq etishda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligidagi O'zbekistonning faol ishtiroki tahsinga sazovordir. Mamlakat qiziqishlari hududlarni rivojlantirish dasturlarini kengaytirish, transport, savdo va energetika yo'laklarini mustahkamlash, integratsiyalashgan texnoparklar, ilmiy klasterlar va erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish orqali innovatsiyalarni joriy etishga qaratilgani bilan katta e'tiborga molik.

O'zbekiston yetakchisi tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar, Xitoy — Markaziy Osiyo va G'arbiy Osiyo o'rtasida iqtisodiy yo'lakni rivojlantirish, "yashil" iqtisodiyotga e'tibor va inson kapitalini rivojlantirish umumiy taraqqiyot uchun naqadar muhimligi ayon.

Bundan tashqari, O'zbekistonning Xitoy bilan turizm, sog'liqni saqlash va madaniy almashuv kabi sohalardagi hamkorligi har tomonlama rivojlanish uchun katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida Xitoy sarmoyasining ortib borayotgani ikki davlat o'rtasidagi ishonch va sadoqatni namoyon etadi.

Xulosa o'rinda ta'kidlash kerakki, "Bir makon, bir yo'l" uchinchi xalqaro forumi mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlab, misli ko'rilgan yuksalish va farovonlik davrini boshlab beradi. O'zbekiston rahbarining ushbu forumdagi ishtiroki esa mamlakatning xalqaro hamkorlikka katta ahamiyat berayotgani va global iqtisodiy muloqotga salmoqli hissa qo'shish niyatida ekanligidan yaqqol dalolatdir.

"Dunyo" AA.

### Haftalik

## INNOVATSIYALAR VA AMALIY YECHIMLAR

*Davlatimiz rahbarining 2018-yil 27-aprel kuni qabul qilingan "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida yurtimizda har yili "InnoWeek. Uz" innovatsion g'oyalar haftaligi o'tkazib kelinmog'da.*

Ayni kunlarda poytaxtimizda davom etayotgan "InnoWeek.Uz-2023" haftaligi doirasida uyushtirilayotgan tadbirlarda mahalliy va xorijiy kompaniyalar, sarmoyadorlar, xorijiy diplomatik missiyalar vakillari, tadbirkorlar, shuningdek, vazirlik va idoralar mas'ullari faol qatnashayotir. O'tgan yillarda bo'lgani kabi joriy yilgi muloqotlar davomida ham o'zaro hamkorlik bo'yicha ko'plab memorandumlar hamda sarmoyaviy shartnomalar imzolandi.

Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda mazkur haftalik mahalliy va xorijiy ishtirokchilarga tadbirkorlikning turli yo'nalishlari uchun eng ilg'or innovatsion texnologiyalar, mahsulotlar, loyihalar, ilm-fan yutuqlarini namoyish etishga ishonchli platforma vazifasini bajrayapti.

— Haftalikdan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, innovatsion rivojlanish yo'nalishidagi yutuqlar yuzasidan xorijiy va mahalliy tahlilchilar o'rtasida o'zaro fikr almashishdan iboratdir, — deydi Toshkent davlat texnika universiteti kafedra mudiri, professor Hikmat Ishmuratov. — Innovatsion haftalik doirasida oliy ta'lim muassasalarida ko'rgazmalar, anjumanlar hamda tanlovlar tashkil etilyapti. Xususan, universitetimiz huzuridagi O'zbekiston — Yaponiya yoshlar innovatsiya markazida "Ixtirochilik va ratsionalizatorlik" mavzuida respublika tanlovi o'tkazildi.

Unda yurtimizning turli oliy o'quv yurtlaridan 150 dan ziyod iqtidorli talabalar qatnashib, ekspertlar tomonidan 70 ta eng yaxshi loyiha tanlab olindi. Tanlov ishtirokchilari ko'z uchun dorivor qoplama, vibrot'oqinli eshitish moslamasi, kasallangan o'simliklarni aniqlab, ularni davolovchi dastur ishlanmalari kabi ko'plab loyihalar bilan mutaxassislarning e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Shu ma'noda, bunday tanlovlar talabalar, yosh olimlar, ilmiy izlanuvchilar hamda professor-o'qituvchilarga zamonaviy bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda innovatsion ishlanmalar yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etishda asos bo'lib xizmat qiladi. Oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish hamda innovatsion aloqalarni rivojlantirishni rag'batlantiradi.

## DO'STONA MUNOSABATLAR INSONIYATNI FAROVONLIKKA YETAKLAYDI

"Bir makon, bir yo'l" tashabbusi dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega bo'lgan davlatlar bilan ham, quruqlik bilan o'ralgan mamlakatlar bilan ham integratsiya loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Shu sababli uning doirasida "Ipak yo'l" iqtisodiy makoni va "XXI asrda Dengiz Ipak yo'l" shakllantirilmoqda. Ushbu tashabbus 2013-yilning sentyabr va oktabr oylarida XRR Raisi Si Szinpin tomonidan Qozog'iston va Indoneziyaga amalga oshirgan tashabbusi davomida uzoq muddatli strategik rejalar sifatida ilk bora ilgari surildi. Si Szinpin "Nazarboev universiteti"dagi nutqida umumiy sa'y-harakatlar bilan "Ipak yo'l" iqtisodiy makoni"ni tashkil qilish barcha mamlakatlar uchun foydali bo'lishini ta'kidladi. Bali orolida bo'lib o'tgan sammitdagi nutqida esa Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarini "Dengiz Ipak yo'l" g'oyasini qo'llab-quvvatlashga chaqirdi.

2013-yil sentyabrda Xitoy Raisi Si Szinpin tomonidan ilgari surilgan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi avval boshdan o'tgan dunyoda jiddiy qiziqish uyg'otdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Eng avvalo, mazkur tashabbus nafaqat juda dadil, balki shu vaqtgacha misli ko'rilmagani ko'lamdagi mintaqalararo loyiha o'nlab mamlakatlar, xalqlarning bevosita iqtisodiy manfaati, foydasi qamrab olgani, hayotiyli, amaliyotga yo'naltirilgani e'tiborni tortadi. Tarixda ilk bor butun Yevroosiy qit'asida o'zaro bog'langan transport infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi keng ko'lami reja taqdim etilgan. Bu maqsadning amalga oshirilishi, shubhasiz, sayyoramizning g'oyat katta makonida mutlaqo yangi transport yo'laklarini yaratish uchun keng imkoniyatlar beradi.

Global miqyosdagi bunday tashabbus e'tibordan chetda qolmasligi aniq edi. Darhaqiqat, o'tgan o'n yil ichida ko'plab davlatlar Osiyo, Yevropa va Afrikani chambarchas bog'laydigan yangi savdo

yo'llari, transport va iqtisodiy yo'laklar yaratish bo'yicha ushbu ulkan va keng qamrovli loyihadagi ishtirok etishga qiziqish bildirdi. "Iqtisodiy belbog" deb atalmish yangi loyiha tufayli mintaqalar mamlakatlarining iqtisodiyoti rivojlanib, savdo-sotiq ko'payadi, mahsulotlar uchun yangi bozorlar paydo bo'ladi. Loyihadagi nafaqat qadimiy ipak yo'lini tiklash, balki Yevroosiy mintaqasida yangi savdo-iqtisodiy modelni yaratish ko'zda tutilgan. Agar bu g'oya amalga oshsa, mintaqalar mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko'tariladi.

"Bir makon, bir yo'l" loyihasi doirasida tashkil etilayotgan transport yo'lagi Avstraliya, Indoneziya va Osiyo mamlakatlarini Yevropa, Afrika va Lotin Amerikasi orqali AQSH bilan bog'laydi. Hisob-kitoblariga qaraganda yangi ipak yo'l sayyoramiz aholisining yarmidan ko'prog'ini, to'g'rirog'i 4,4 mlrd. kishi istiqomat qiladigan mamlakatlarni qamrab oladi. Ushbu davlatlar dunyo yalpi ichki mahsulotining 50 foizini va jahon energiya zaxiralarning 75 foizini o'zida jamlagan. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, butun loyihaning taxminiy qiymati 21 trln. dollarga teng. E'tiborsiz, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida shu paytgacha amalga oshirilgan turli loyihalar tufayli sayyoramizda 40 mln. inson kambag'allik va qashshoqlikdan xalos bo'ladi.

Yangi ipak yo'lining quruqlikdagi qismida uchta temir yo'l yo'lga barpo etilmoqda. Shimoliy yo'lak Rossiya hududlaridan o'tadi. Markaziy va Janubiy yo'lak esa Markaziy Osiyo mamlakatlari hududlaridan o'tishi rejalashtirilgan. Keyinchalik temir yo'l yo'laklariga avtomobil yo'llari ham qo'shiladi. Asosiy yo'nalishi Markaziy Osiyodan o'tadigan bu yo'lakning uzunligi 6 ming 500 kilometrni tashkil qilib, uning 4 ming kilometri Xitoyning Tinch okeani sohilidan Shinjon-Uyg'ur muxtor o'lkasigacha bo'lgan yo'l'dir. U yerdan Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston orqali Eron,

Iroq, Suriya va Turkiyaga boriladi. U yog'i esa Yevropaga bir qadam. Dengiz yo'l'i ham xuddi qadimgi savdo yo'l'i singari Guanchjouan boshlanadi va Vyetnam, Tailand, Malayziya, Singapur va Indoneziya orqali Qizil dengizga chiqib, Afrikagacha yetib boradi. Yangi transport yo'laklari Xitoydan o'tirilgan yuklarni qisqa muddatlarda Yevropaga yetkazishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Bugungi kunda osmonosti mamlakati xoh xorijdagi, xoh o'zidagi transport infratuzilmalarini rivojlantirish maqsadida mablag'larni ayamayapti. Qisqa aytganda, yangi Buyuk Ipak yo'l'i Xitoy va boshqa mamlakatlarga taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Yana bir muhim maqsad shundan iboratki, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi pirovardida ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni bartaraf etadi.

O'zbekiston avval boshdan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini yuqori baholadi va qo'llab-quvvatladi. Zero, faol savdo g'oyasi o'lkamizning ko'p asrlik tarixiga singib ketgan. O'zbekiston qadim-qadimdan butun Yevroosiy hududida savdo aloqalarini amalga boshlagan. Geografik jihatdan Markaziy Osiyo asrlar davomida afsonaviy ipak yo'lining asosiy yo'nalishi, strategik muhim savdo nuqtasi bo'lib kelgan. E'tiborsiz, Yevroosiyoning yuzlab xalqlari va davlatlarini o'zaro manfaatli hamkorlikning yagona zanjiri orqali yana birlashtirish g'oyasi, tarixan, ipak yo'l'i boshida joylashgan Xitoy tomonidan e'lon qilindi. Zero, aynan XRR muvaffaqiyatli ijtimoiy taraqqiyotning ajoyib namunasi jahonga namoyish etmoqda.

O'zbekiston turli sohalarni rivojlantirish maqsadida Xitoy bilan hamkorlikni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat berayapti, o'z rejalarni "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi imkoniyati bilan doim qiyoslaydi. Ko'plab misollar esa "Makon va yo'l" g'oyasi asosida O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi keng

ko'lami, ko'p qirrali va muntazam o'sib borayotgan hamkorlikning bunyodkor kuch-qudratini ishonchli tarzda namoyon qilib, xalqlarimiz do'stligini yanada mustahkamlash yo'lidagi yorqin istiqbol umidi asoslanganini tasdiqlaydi.

Xitoy O'zbekistonning savdo hamkorlari orasida Rossiya bilan birgalikda asosiy o'rinda turadi. Masalan, 2022-yil yakunlariga ko'ra mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi salqam 9 mlrd. dollarni tashkil etdi. Joriy yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 10 mlrd. dollardan oshishi kutilayotir. O'zbekiston Xitoyga o'z tovarlari uchun yirik va istiqbolli bozor hamda salohiyatli sarmoyaviy sherik sifatida qaraydi. Xitoyning 11 mlrd. dollarlik investitsiyalari mamlakatimiz iqtisodiyotining ko'plab tarmoqlariga, jumladan, kimyo sanoati, neft-gaz sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, yengil sanoat va boshqa sohalarga kiritilmoqda. Yurtimizda yirik sarmoyaviy va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etayotgan Xitoy kompaniyalari soni ham ortib bermoqda. O'zbekiston va Xitoy kompaniyalari ishtirokida ishlab chiqilgan 170 dan ortiq yangi loyihalar amaliyotga tatbiq etish bosqichida.

Hamkorlikning yana bir muhim yo'nalishi—kambag'allikni qisqartirish. Bu yo'nalishda Xitoy tajribasi o'rganilmoqda, qator vazirliklar bor borada hamkorlik qilmoqda. Ikki davlat kompaniyalari ishtirokida yuqori texnologiyali qo'shma sanoat parklari yaratish, sanoat kooperatsiyasi, infratuzilmani modernizatsiya qilish, transport, farmatsevtika, telekommunikatsiya sohalarni rivojlantirish bo'yicha loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilyapti.

Ta'kidlash joizki, "Bir makon, bir yo'l" navbatdagi forumi dunyo miqyosida kuchli qiziqish uyg'otdi. Chunki bu mintaqaviy va global savdo-iqtisodiy hamkorlik uchun transport imkoniyatini

yanada kengaytirish rejasini bilan bog'liq. Shu bois 2017-yildagi birinchi, 2019-yilning aprel oyida bo'lib o'tgan ikkinchi forumlarda ham Prezident Shavkat Mirziyoyev faol ishtirok etib, qator yangi, hayotiy tashabbuslarni ilgari surgan edi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi uchun hal qiluvchi hudud hisoblanadi. Shu bilan birga, mintaqadagi mazkur loyihalardagi ishtirok bilan kelgusidagi iqtisodiy, siyosiy taraqqiyot jarayonini ta'minlash bo'yicha yuqori salohiyatini ko'rsatadi. Binobarin, 30 yildan ko'proq vaqt mobaynida Markaziy Osiyo davlatlari va Xitoy o'rtasidagi aloqalar keskin rivojlanish sur'atini namoyon qilib, bugungi kunda strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Faqat 2022-yil davomida Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 45,4 foiz oshib, shunga mos ravishda mahsulot ayirboshlash 49 mlrd. dollarga yetdi. XRR Raisi Si Szinpin bayonot berganidek, ushbu ko'rsatkichni 2030-yilga borib 70 milliardga yetkazish rejalashtirilgan.

Yana bir muhim jihat. Markaziy Osiyo va Xitoy davlat rahbarlarining 2022-yil 25-yanvarda bo'lib o'tgan onlayn-sammitida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev to'siqsiz savdoni, sanoat

Muxtasar aytganda, "Bir makon, bir yo'l" konsepsiyasi Xitoy tashqi siyosatining eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri sifatida Osiyo-Tinch okeani va Yevropa mintaqalarini bog'laydi, jahon iqtisodiyotining tiklanishi va global sivilizatsiyaning birlashuviga xizmat qiladi. Shu jihatdan Prezidentimizning ushbu tashriif har tomonlama strategik sheriklikni barqaror, izchil rivojlantirishga salmoqli hissa bo'lib qo'shilishi, O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirishga kuchli turki berishi, shubhasiz.

Abduvali SOYIBNAZOROV  
("Xalq so'zi")  
Pekin, Xitoy Xalq Respublikasi



## SAYYOHLIK RAVNAQI UCHUN GLOBAL PLATFORMA

Samarqandda Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasi doirasida birinchi yalpi majlis bo'lib o'tdi. Unda turizm sohasiga taalluqli xalqaro va mahalliy tashkilotlar vakillari, ekspertlar, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

## Xalqaro anjuman

Yig'ilishni O'zbekiston ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri, UNWTO Bosh assambleyasining 25-sessiyasini o'tkazish bo'yicha O'zbekiston hukumati tashkiliy qo'mitasi raisining o'rinbosari Aziz Abduhakimov mezbun sifatida ochib berdi va o'z nutqida turizmning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rini yuqori baholadi.

Tadbirda mintaqaviy turizm faoliyatini shakllantirish va muvofiqlashtirish uchun "Ipak yo'lida turizm" tematik ofisini ochish rejasini ma'lum qilindi. Bu ipak yo'lining global brend sifatidagi salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Yalpi majlisda nutq so'zlagan UNWTO bosh kotibi Zurab Pololikashvili dunyo davlatlarini iqlim

o'zgarishiga qarshi birgalikda kurashishga chaqirdi. Bosh kotibning so'zlariga ko'ra, iyul oyidagi jazirama ortidan odamlar sayohatiga u qadar oshimagan. Demak, iqlim o'zgarishi turizmga ham jiddiy xavf soladi. Bundan tashqari, zam-nimimizda plastik chiqindilar hajmi oshib ketgan. Shu bois ona sayyoramizni o'zimiz himoya qilishimiz kerakligi ta'kidlandi.

Tadbirda so'zga chiqqan turli davlatlar vakillari, sayyohlik sohasi uchun mas'ul vazirlar ham O'zbekiston jahon iqtisodiyotida jadal taraqqiyot etayotgan yo'nalishlardan biri — turizmni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratayotganini e'tirof etdilar.

Yig'ilishda tashkilot faoliyatiga oid hisobot ham tinglandi. Turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan

turli dolzarb masalalar ham mu-hokama qilindi.

Bundan tashqari, sessiya doirasida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hamda "Masterkard" global to'lov tizimi rahbariyati o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Unda tomonlar O'zbekistonda turizmni rivojlantirish sohasida strategik hamkorlikni e'lon qildi hamda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining "Masterkard" turizm innovatsion markaziga ("Mastercard Tourism Innovation Hub") qo'shilishini nazarda tutuvchi o'zaro anglashuv memorandumini imzoladilar.

Ma'lumot uchun, "Masterkard" to'lovlar va texnologiya sohasidagi yetakchi global kompaniya bo'lib, hozirda 60 dan ortiq mamlakatlarda to'lovlarini raqamlashtirish orqali iqtisodiy o'sish va rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan 1600 dan ortiq davlatlar loyihalarini boshqaradi.

Darvoqe, avval xabar qilingan-

nidek, "Buyuk Ipak yo'l'i" xalqaro turizm markazi hududidagi "Eks-pomarkaz"da Global investitsiya forumi va ko'rgazmalar namoyishi davom etmoqda. Unda o'ngacha yaqin davlatlarning turizm-investitsiya salohiyati, har bir hududning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi turizm loyihalari ko'rgazmasi o'rin olgan.

Xalqaro tadbirlarga O'zbekiston va aynan Samarqandning mezbunlik qilishi mamlakatimiz va shahringizning turizm salohiyatini oshiradi, — deydi Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa bozorlari bo'yicha mintaqaviy direktor Idara Ahmedin. — O'zbekiston ko'p millatli davlat. Mamlakatga har safar kelganimizda turizm sohasida nimadir yangilik yuz bergan bo'ladi. Bu tashiga loyiq. Bugungi tadbirda sayyohlar faoliyatini tahlil etishga bag'ishlangan ko'rgazmani namoyish qildik. O'ylaymanki, bu ham o'zaro aloqalarini yanada mustahkamlaydi.

Anjuman doirasidagi tadbirlar davom etmoqda.

Abdulaziz YO'LDOSHEV  
("Xalq so'zi").

## TURIZM TARAQQIYOTIDAGI ISHLARGA YANGI GACHA SUR'AT BERADI

Ma'lumki, jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli tarmoqlaridan biri turizm sohasi hisoblanadi. O'zbekistonning bu boradagi salohiyati va imkoniyatlari nihoyatda yuqori. Ko'plab tarixiy shaharlarimiz, yuzlab tarixiy obida va yodgorliklarimiz borligidan kelib chiqib ayatadigan bo'lak, yurtimizda sayyohlik istiqbolli porloq. Qolaversa, ekologik va ziyorat turizmi yo'nalishlarini rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyatimiz bor.

## Forum

O'zbekistonning turizm salohiyatini nafaqat o'zimiz, ayni chog'da dunyodagi eng nufuzli tashkilotlar ham yaxshi biladi.

Shu kunlarda Samarqand shahri mezbunlik qilayotgan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasining yurtimizda o'tkazilishi ham ana shu e'tirofning o'ziga xos ifodasi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Markaziy Osiyo mintaqasi uchun katta tarixiy voqea hisoblangan mazkur nufuzli tadbirning ilk bor bizda o'tkazilishi mamlakat turizm salohiyatini namoyon etishidan tashqari, O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirish, xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarni kengaytirish, madaniy va turizm salohiyatini targ'ib qilish uchun katta imkoniyatlar e'hisini ochishi bilan ham ahamiyatlidir.

Hozirdan aytilish mumkinki, bu anjuman "Ipak yo'lida turizm" brendini keng yoyib, soha infratuzilmasini rivojlantirish,

mamlakatimizga sayyohlik yo'nalishlarini ko'paytirish, malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan dastur va loyihalarini tayyorlab, hayotga izchillik bilan tatbiq qilish borasidagi sa'y-harakatlarimizga yangi gacha sur'at beradi.

Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasi ochilish marosimida nutq so'zlagan Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, tashkilotning yubiley yig'ilishi Buyuk Ipak yo'l'i durdonasi, yangi O'zbekistonning yirik sayyohlik maskani bo'lgan qadimiy Samarqand shahrida o'tkazilayotgani chuqur ramziy ma'noga ega.

Bu, avvalo, oxirgi yillarda O'zbekistonda mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan muhim chora-tadbirlar va erishilayotgan natijalar bilan bog'liq. Pirovardida yurtimiz Butunjahon turizm tashkilotining ishonchli va uzoq muddatli strategik hamkori sifatida o'zini namoyon etmoqda.

bo'yicha tarixiy shaharlar kengashini tuzish tashabbuslari shular jumlasidandir.

Qolaversa, davlatimiz rahbari Samarqandda ochilgan Butunjahon turizm tashkilotining Xalqaro turizm akademiyasi uchun kelgusi o'quv yilidan boshlab O'zbekiston iqtidorli mutaxassislar uchun maxsus grantlarni taqdim etishi va davlatlar vakillarini ushbu dasturda faol qatnashishga chaqirdi. Ayni chog'da turizm sohasining faol targ'ibotchilari — jurnalistlar, blogerlar va ommaviy axborot vositalari vakillarini o'zida birlashtiradigan Global mediakampusni tashkil etish vaqti kelgani ham alohida ta'kidlab o'tildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan yana qator taklif va tashabbuslar bildirildiki, ularning barchasi nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda turizm sohasini yanada rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ulkan ahamiyatga ega.

Umuman, Samarqand sammitini O'zbekistonning turizm sohasi rivojiga katta turki beradigan tarixiy ahamiyatga molik voqea, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Shuhrat CHO'LLIYEV,  
Oliy Majlis Senatining  
Sud-huquq masalalari va  
korruptsiyaga qarshi kurashish  
qo'mitasi raisi o'rinbosari.

## Aks sado

## MUSHTARAK MAQSADLARNI BIRLASHTIRADI

So'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohada, ayniqsa, turizmni rivojlantirish, ushbu yo'nalishdagi imkoniyatlarimizni yanada keng namoyon etish borasida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar bugun o'z natijalarini ko'rsatmoqda. Buni shu hafta yurtimiz siyosiy, madaniy hayotida muhim voqe'liklar bilan boshlangani va uning ruhi yil oxirigacha saqlanib qolishi misolida ko'rish mumkin.

Xususan, Prezidentimiz Shavkat

Zulayho AKRAMOVA,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— So'nggi chorak asr mobaynida jahon miqyosida Buyuk Ipak yo'l'i orqali turizm sohasini rivojlantirishga qiziqish tobora o'sib bermoqda. Bu, albatta, bevosita zamon talablari bilan bog'liq. Zero, butun dunyoda iqtisodiyotning globallashuvi jarayoni avj olayotgan ayni paytda barcha katta-kichik davlatlar jahon bozorlariga shu darajada bog'lanib qoldiki, endilikda turizm sohasini rivojlantirish ham har qanday mamlakat uchun ushbu bozorlar orqali o'z aholisi daromadlarini ko'paytirish, xalqining turmush farovonligini oshirish va buning natijasida jamiyat va davlatni boy qilishning muayyan asoslaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Bularsiz iqtisodiy rivojlanish sari yo'l anchayin mushkul bo'lishi mumkin. Demak, shu jihatdan ko'pgina

Navro'z RIZAYEV,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— Prezidentimiz UNWTO Bosh assambleyasining 25-sessiyasida sohani rivojlantirish bo'yicha bir qator takliflarni ilgari surdi. Jumladan, global turizmning eng dolzarb muammosi, bu turistlarning kafolatlangan xavfsizlik tizimini ta'minlash ekanini qayd etib, xalqaro turizm sohasida mustahkam huquqiy asoslarni kuchaytirish maqsadida BMT doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqishni taklif etdi. Iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib borayotgan davrda "yashil" turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro

Tursunoy MURATOVA,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— Davlatimiz rahbarining UNWTO Bosh assambleyasining 25-sessiyasida ilgari surgan tashabbuslari nafaqat milliy sayyohlik sektori, balki sohaning global taraqqiyotiga ham daxldor va dolzarb ekanini bilan xalqaro hamjamiyatda e'tirofga sazovor bo'lmoqda. Inchunin, hayotiy tashabbuslarning amaliyotga tatbiq etilishi kelgusida ko'plab yangi turizm infratuzilmalari barpo etilishi, mehmonxonalar qurilishi, ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilishiga, bir so'z bilan aytganda, turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ayniqsa, iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib borayotgan davrda "yashil" turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro Harakatlar dasturini qabul qilish ko'rsatib o'tilgani ushbu masala har qachongidan ham dolzarbligini anglatadi.

Mirziyoyevning Samarqandda o'tkazilayotgan Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasida, shuningdek, Pekinda "Bir makon, bir yo'l" xalqaro forumining ochilishidagi ishtiroki davlatimiz tashqi siyosatida o'zaro manfaatli hamkorlik kengayayotganidan dalolat beradi.

Ushbu muhim voqe'liklarning ahamiyati haqida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari fikrlari bilan qiziqdik.

mamlakatlar Buyuk Ipak yo'l'iga, ozmi-ko'pmi, aloqador deb ayta olamiz. Ayniqsa, dengiz bilan bevosita bironta yo'l orqali bog'lanmagan O'zbekiston uchun Buyuk Ipak yo'l'i nihoyatda ahamiyatli bo'lgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Shu nuqtayi nazardan aytganda, Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasi 25-sessiyasining aynan Samarqand shahrida, ya'ni Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida o'tkazilgani ham o'ziga xos chuqur ramziy ma'no kasb etadi.

Davlatimiz rahbari delegatlarni Samarqandni "Madaniy turizmning xalqaro poystagi" deb e'lon qilish va tegishli deklaratsiyani imzolashga doir tashabbusni qo'llab-quvvatlashga chaqirar ekan, ishtirokchilar bu taklifni zo'r mamnu'iyat bilan qarshi oldilar.

turizm yili" deb e'lon qilish hamda maxsus deklaratsiyani imzolash tashabbusi ilgari surildiki, bu imkoniyati cheklangan sayyohlar uchun qulay sharoitlarni yanada kuchaytirish bilan birga, inklyuziv turizm infratuzilmasini rivojlantirish imkonini beradi.

Aytish joizki, Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining sessiyasi sohada hali imkoniyatlar ko'pligini ko'rsatish uchun qulay fursatdir. Yaratilgan katta maydon esa ana shu maqsadlarga xizmat qilishi, shubhasiz.

Mamlakatimiz rahbari Pekin shahrida "Bir makon, bir yo'l" xalqaro forumining ochilish marosimida hamda "Inson va tabiat uyg'unligi yo'lida "Yashil Ipak yo'l"ni birgalikda barpo etish" mavzuidagi yalpi yig'ilishdagi nutqida ham aynan "Yashil Ipak yo'l" tashabbusi mohiyat e'tibori bilan umumiy "yashil" kelajak kun tartibini shakllantirishini ta'kidlagani bejiz emas.

O'z navbatida, Prezidentimiz Markaziy Osiyoda "yashil" taraqqiyot sohasidagi maqsadlarga erishish yo'lida fikr almashish va sa'y-harakatlarni birlashtirish uchun 2024-yilda Samarqand xalqaro iqlim forumini o'tkazish tashabbusi bilan chiqdi. Demak, ko'hna va navqiron Samarqand kelgusi yilda yana bir katta forumga mezbunlik qiladi.

"Xalq so'zi".

Muloqot

GENDER TENGSIZLIKNI YUZAGA KELTIRADIGAN STEREOTIP VA IJTIMOY ME'YORLARGA CHEK QO'YILADI

Kuni kecha Oliy Majlis Senatida O'zbekiston yetakhi ayollar muloqoti platformasi a'zolarining 2023-yildagi ilk uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuv Senat hamda BMT Taraqqiyot dasturining "O'zbekistonda milliy gender strategiyasini amalga oshirish va gender tenglikka erishish" loyihasi doirasida tashkil etildi.

Unda Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi va Yetakhi ayollar muloqoti platformasi a'zolari, BMT Taraqqiyot dasturi hamda vazirlik va idoralar vakillari qatnashdi.

Ta'kidlanganidek, mazkur platforma xotin-qizlarning huquqlarini ta'minlash, imkoniyatlarini oshirish, rahbar ayollar safini kengaytirish, ularning yetakchilik ko'nikmasini rivojlantirish hamda gender tenglik muammolarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Xususan, tadbirda Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi raisi Malika Qodirxonova platforma a'zolarining asosiy vazifasi har bir hududdagi xotin-qizlarning tadbirkorlik, ilm-fan, axborot texnologiyalari, media, sport va madaniyat kabi sohalardagi asosiy muammolarini aniqlash va yechim topishdan iborat ekanligini alohida ta'kidladi.

Shuningdek, imkoniyati cheklangan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, gender stereotiplari va noo'rni ijtimoiy me'yorlarga chek qo'yish bo'yicha va har bir hududdagi opa-singillarimizning ijtimoiy ahvolini tubdan yaxshilashga ko'maklashishga qaratilgan davlat organlari uchun dasturlar ishlab chiqishda platformaning ahamiyati yuqori ekanligi ham urg'ulab o'tildi.

Tadbirda BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili vazifasini vaqtincha ijro etuvchi Anas Fayyad Qarman yetakhi ayollarning salohiyatini yuksaltirish, siyosiy partiyalarda gender tamoyillarini kuchaytirish, xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, shuningdek, yetakchi ayollarning notiqlik madaniyati va aholi bilan muloqot qilish ko'nikmasini oshirishda dastur doirasida amaliy yordam ko'rsatishga tayyor ekanini bildirdi.

Uchrashuvda xotin-qizlarning yangicha yondashuv va tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga ko'mak berish, islohotlar, yangilanishlar, siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirokini ta'minlash, bunda platformaning o'rni va rolini kuchaytirish bo'yicha fikr almashildi.

"Xalq so'zi".

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

O'zXDP: XALQCHIL G'OYALAR VA ELEKTORAT MANFAATLARI - USTUVOR VAZIFA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashi ijroiya qo'mitasi hamda partiya fraksiyasining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Videomuloqot shaklida o'tkazilgan tadbirda O'zXDP fraksiyasi a'zolari, Markaziy, mintaqaviy kengashlar mas'ul xodimlari, partiya guruhi rahbarlari hamda partiya faollari ishtirok etdi.

Yig'ilishni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashi raisi, partiyaning Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi rahbari Ulug'bek Inoyatov ochib berar ekan, shu kunlarda bir guruh deputatlar tomonidan ishlab chiqilgan va jamoatchilik muhokamasiga chiqarilgan saylov tizimi va referendumga oid qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishini nazarda tutuvchi Konstitutsiyaviy qonun loyihasining mazmun-mohiyati va ahamiyatiga batafsil o'txalib o'tdi.

Fraksiya rahbari ta'kidlaganidek, mazkur qonun loyihasi bilan majoritar saylov tizimidan aralash saylov tizimiga o'tilayotgani, ya'ni parlament saylov tizimida saylovchilardan bundan buyon faqatgina shaxslarga emas, siyosiy partiyalarga ham ovoz berishi yo'lga qo'yilayotgani xalqning muayyan qatlamini manfaatlarini ifodalovchi siyosiy partiyalarning fikrlari, hayotiy g'oya va dasturlari o'rtasida raqobatni kuchaytirib, mamlakatimizda siyosiy birdamlikka asoslangan

yangicha demokratik muhitni yuzaga keltiradi.

Yig'ilishda partiyaning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasining o'tgan davrdagi faoliyatida ijtimoiy sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, saylovchilar bilan muloqotni kuchaytirish, fuqarolarni o'ylantirib kelayotgan tizimli muammolarni tahlil qilish, ijro organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini olib borishga ustuvor ahamiyat qaratilganligi ta'kidlandi.

Xususan, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi, "Yer to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi, "Pedagog maqomi to'g'risida"gi va boshqa qator qonun loyihalarida elektorat manfaatlariga xizmat qiladigan takliflar aks etishiga erishildi.

Qonun loyihalarini "markaz — viloyat — tuman" tizimi asosida partiya quyi bo'lg'larida hamda mahalliy Kengashlardagi partiya guruhlarida muhokama qilish, ularning takliflarini olish borasidagi ishlar davom ettirilib, 30 dan ortiq qonun loyihalarining joylardagi muhokamasini tashkil etildi. Partiya faollari va keng jamoatchilikdan

200 ga yaqin takliflar shakllantirilib, qonunlarni takomillashtirish jarayonida foydalanildi. Joylardan olingan takliflar qonunlar to'g'ridan-to'g'ri ishlagan, shu bilan birga, hududlardagi muammolar yechimini qonunon hal etishga xizmat qilayotganligi e'tirof etildi.

Shu bilan birga, yig'ilish ishtirokchilari joylarda partiya tashabbusi bilan o'tkaziladigan jamoatchilik va deputatlik nazoratini tizimli tashkil etish, elektorat manfaatlariga daxldor dolzarb masalalarning qonuniy yechimiga oid konstruktiv takliflarni hamda muhim ahamiyatga ega masalalar yuzasidan keng qamrovli fraksiya pozitsiyasini ishlab chiqish va ularni jamoatchilikka yetkazishga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidladilar.

Shundan so'ng, 2023-2024-yillarda partiya elektoratini o'ylantirayotgan masalalar yechimi yuzasidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan qonun tashabbuslari loyihasi taqdimot qilindi. Jumladan, o'zgarlar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan insonlar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, uy-joylar qurilishida aholi mablag'larini kafolatli himoya qilish, dorixonalar faoliyatini tartibga keltirish hamda boshqa yo'nalishlardagi qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif-tavsiyalar bildirildi.

Yig'ilishda partiya barcha

bo'g'inlarining ijtimoiy-siyosiy, targ'ibot va tashkilotchilik ishlari bo'yicha "yo'l xaritasi" loyihasini tayyorlash uchun ishchi guruh tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Ulug'bek VAFOYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashi raisi o'rinbosari:

— Saylov kodeksiga o'zgartirishlar kiritilmoqda. Saylov tizimi tubdan o'zgarimoqda, endi saylovlar aralash tizim — majoritar va proporsional tarzda o'tkaziladi. Fuqarolar nomzodlar, ya'ni shaxslar bilan birga, siyosiy partiyalar uchun ham ovoz beradi. Bu esa, o'z navbatida, partiyamiz oldida juda katta sinov turganini anglatadi. Chunki proporsional saylovda fuqarolar partiya uchun ovoz beradi. Bu — bo'lg'usi saylov partiyaning jamiyatdagi o'rini belgilab, xalq o'rtasidagi real obro'sini, partiya faoliyatining samaradorligini ko'rsatadi, degani.

O'zXDP — yuqori salohiyatli deputatlar va mutaxassislarni o'zida jamlagan siyosiy partiya. Lekin partiya va fraksiyaning shu yil 9 oydagi faoliyati tahlili qonun ijodkorligida ishtirokimizni yanada kuchaytirish zarur ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bois bugungi kengaytirilgan yig'ilishda elektoratimizni qiynayotgan muammolar yechimi yuzasidan 2023-2024-yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan qonun

tashabbuslari bo'yicha ishlab chiqilgan reja muhokama qilindi. Ushbu rejada belgilangan vazifalarni ko'rib chiqish jarayonida partiyaning 300 ga yaqin a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

To'liq TO'RAXONOV, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashi raisi o'rinbosari:

— Kengaytirilgan yig'ilishda partiyamizning axborot siyosatini amalga oshirishda erishilgan yutuqlar, natijalar bilan birgalikda ayrim uchrab turadigan kamchiliklar atrofiga muhokama qilindi. Partiya faoliyatining yoritilish tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, biz, aholi, saylovchilar bilan muloqot, ularni o'ylantirib turgan masalalarni tizimli tahlil qilish va uning yechimiga oid takliflarni ishlab chiqishda hozirgiga nisbatan falroq bo'lishimiz maqsadga muvofiq.

Xususan, elektorat vakillari huquq va manfaatlar himoyasi bilan bog'liq mavzularda keng auditoriyaga ega ommaviy axborot vositalari orqali qat'iy fikr va pozitsiyamizni bildirib borishimiz zarur. Zotan, partiyalar faoliyatining asosini g'oya va fikrlar tashkil etadi. Biz odamlarni o'ylantirayotgan masalalarni hal qilishga qaratilgan xalqchil g'oyalarni jamoatchilikka to'g'ri va o'z vaqtida yetkazsak, raqobatbardosh, odamlarni o'z ortidan ergashtira oladigan, haqiqiy ma'nodagi kuchli partiya bo'la olamiz.

"Xalq so'zi".

21-oktabr — O'zbek tili bayrami kuni

MILLIY O'ZIGA XOSLIK VA G'URUR TIMSOLI

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni imzolanganida biz hall talaba edik. Yurtimizda mustabid tuzum o'z hukmini o'tkazib turgan paytda fidoyi, jonkuyar ziyolilarimiz, yuragida o'ti bor yoshlar millat taqdiri va kelajagiga daxldor bo'lgan ona tilimiz davlat tili maqomiga ega bo'lishi, bu borada qonun qabul qilinishi talabi bilan chiqqan edi.

Qonun ana shu tarzda, keng jamoatchilikning qat'iy shijoati bilan yuzaga kelgan. O'sha tarixiy jarayonlarning bevosita guvohi bo'lganmiz.

Oradan ikki yil o'tib yurtimiz mustaqil bo'ldi. "Davlat tili haqida"gi Qonunning ijrosiga kirishilishi bu sharaflil yo'ldagi ilk qadam edi. O'tgan davr mobaynida ona tilimizni asrab-avaylash, uning mavqeini

oshirish, rivojlantirish, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash yo'lida ancha ishlar bajarildi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda yurtimizda davlat tiliga bo'lgan e'tibor har qachongidan-da kuchayganligini alohida ta'kidlasak arziydi. Bu borada Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil

20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari hamda 2020 — 2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Konsepsiyada uzoq istiqbolidagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, davlat tilini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan sana "O'zbek tili bayrami kuni" deb e'lon qilindi tarixiy voqea bo'ldi. Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti faoliyati

namoyandalari, o'zbek tilining chinakam jonkuyarlari xotirasiga bo'lgan chuqur hurmat va ehtirom timsolidir.

Atoqli adiblarimiz nomidagi ijod maktablarida bugun qancha qancha yoshlar bebaho xazinamiz bo'lgan ona tilimiz va milliy adabiyotimizning sir-asrorlarini o'rganmoqda. Bularning barchasi uchinchi Renessans poydevori

O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo bo'lishi esa nafaqat iqtisodiy-siyosiy, balki turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzi oshishiga xizmat qiladi. O'zbekiston tashabbusi bilan tashkilot Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis etdi. Ona tilimiz, Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuksak minbarida, nufuzli sammitlarda baralla yangramoqda.

yo'lga qo'yildi. Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universitetida kadrlar tayyorlash bilan bir qatorda, o'zbek tilini turli sohalarda qo'llashga oid tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Adiblar xiyobonida barpo etilgan yodgorlik majmualari adabiyotimizning buyuk

yaratilayotgan bugungi kunda mustaqil davlatchiligimiz timsoli, ma'naviy boyligimiz bo'lgan o'zbek tili taraqqiyotiga yuksak e'tibor samarasidir.

Davlat tilini rivojlantirish borasida olib borilayotgan bunday sa'y-harakatlar natijasida,

shuningdek, O'zbekistonning jahon maydonidagi obro'-e'tibori oshishi barobarida o'zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzi ham ortib bormoqda. Xususan, hozirgi kunda jahonning ko'plab oliy ta'lim muassasalari va maktablarida o'zbek tili darslari o'qitilayotgani, ona tilimizda so'zlashadiganlar hamda o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan xorijlik olim va tadqiqotchilar soni yil sayin ko'payayotgani buning isbotidir.

O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo bo'lishi esa nafaqat iqtisodiy-siyosiy, balki turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzi oshishiga xizmat qiladi. O'zbekiston tashabbusi bilan tashkilot Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis etdi. Ona tilimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuksak minbarida, nufuzli sammitlarda baralla yangramoqda. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Alisher Navoiyning yangi yozib tugatgan "Xamsa" asarini o'qigan Husayn Boyqaro ulug' zotga hurmat ko'rsatib, o'zining yaxshi ko'rgan oq otiga mindiradi. Podshoh o'tning jilovidan tutib, saroy ahlining ko'zi o'ngida Alisher Navoiyga jilovdorlik qiladi va hammaga eshittirib "turkiy tilda shunday "Xamsa" yozganingiz uchun menday podshoh sizga jilovdor murid bo'lsa arziday", deydi.

Tarixga nazar tashlasak, ma'rifatparvar jadidlarimizning



o'zbek tilining sofligini saqlash, uni boyitish, til ta'limi borasidagi dadil qadamlariga guvoh bo'lamiz. Jadidchilik harakati peshlovlaridan biri, adabiyotshunos olim, jurnalist, tarjimon Ashurali Zohiriyning "Sadoi Farg'ona" gazetasining 1914-yil 13-aprel sonida chop etilgan "Ona tili" maqolasida shunday jumalar bor: "gazeta va jurnallarning dunyo ahvolidan va boshqa to'g'rilardan xalqqa xabar berib turmog'idan boshqa ulug' va ko'zga ko'rinmaydurgun bir foydasi bo'lurki, ul ona tilining kengaymog'i va mukallashmog'idir". Oradan bir asrdan ortiq vaqt o'tibdi, bu fikr o'z kuchini yo'qotgan emas. Darhaqiqat, tilimiz rivojida gazeta-jurnallar, kitoblar, umuman, bosma nashrlarning o'rni katta ekani hamma davrlarda ham isbotlangan haqiqatdir.

Mustabid tuzum davrida o'zbek tilining mavqeini pasaytirishga urinishlar ko'p bo'lgan. Ma'rifatparvar adib Abdulla Qodiriy "O'zbek tili kambag'al" deb emas, balki o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar" deya xitob qilgan. Hali-hanuz adabiyotshunoslar o'zbek romanchiligining asoschisi bo'lgan Qodiriy asarlarining jozibadorligi, umrboqiyli uning tilidadi, deb e'tirof etadi.

Ona tilimiz taraqqiyoti haqida so'z yuritganda, albatta, globallashuv jarayonlarida uning

sofligini saqlash masalasiga ham e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi. Xususan, reklama va targ'ibot materiallarida, ayniqsa, tez ko'zga tashlanadigan tashqi reklamalar, televideniye, radio, ijtimoiy tarmoqlar orqali berilayotgan roliklardagi nuqsonlar, hatto ayrim tadbirlarda mavzu va shoirning g'alizligi kishi ta'bini xira qiladi. Ba'zida yozuvda imlo qoidalari to'la amal qilmassik, so'zlashuvda turli tillarga oid atamalar qorishib ketishi, so'z va iboralarni noto'g'ri, o'rinsiz ishlatish, talaffuzdagi nuqsonlar — bularning barchasi ona tilimiz talqini buzilishiga olib keladigan salbiy vaziyatlar.

Bunday holatlarga qarshi, eng avvalo, yurtimiz ziyolilari, o'zbek tili va adabiyoti sohasi mutaxassislari, ijod ahli — yozuvchi, shoirilar, jurnalistlar bong urishimiz kerak. Shundaygina ona tilimizning rivoji va taraqqiyoti yo'lidagi harakatlarni samarali bo'ladi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, bugun yangi O'zbekistonni qurish bo'yicha olib borayotgan keng ko'lami ishlarimiz hal qiluvchi bosqichga kirmoqda. Bu yo'lda ona tilimiz milliy o'ziga xoslik va g'urur timsoli sifatida, shubhasiz, biz uchun katta kuch va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Nazira MATYOQUBOVA, "Qoraqalpog'iston tongi" gazetasi bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist.

TILI BORLAR EMAS, TILNI BILGANLAR GAPIRSIN

Yaqinda bir bilim dargohida bo'lganimizda devorlarga osilgan shioru pannolar e'tiborimizni tortdi. Afsuski, ular xatolardan xoli emasdi. O'qituvchilar esa o'zaro muloqot chog'ida ajnabiy so'zlarni ko'p ishlatar va bu ular uchun odatiy holga aylangani yaqqol sezilib turardi. Shunda beixtiyor o'tgan asrning 70-yillari, zabardast olim Mustaqim Mirzayev yodimizga tushdi...

O'shanda ochig'i, kitoblar, davriy nashrlar chop etilayotganida ularning o'quvchi qo'lga imloviy xatolarsiz yetib borishiga jiddiy yondashilar, televideniye, radio orqali beriladigan ko'rsatuv, eshittirishlarda o'zbek tili sofligiga e'tibor baland edi. Biroq ustozimiz har kuni nufuzli nashriyot, tahririyat, televideniye maqtub jo'natib, ularning xatolarini ko'rsatishdan erinmasdi. Soha mas'ullarini tilni ardoqlashga, so'zlarni o'z o'rnida ishlatishga undar, hushyorlikka da'vat etardi.

Buxoro davlat pedagogika instituti (hozirgi BuxDU) da faoliyat yuritgan filologiya fanlari doktori Mustaqim Mirzayev hozir hayot bo'lganida ona tilimizga bo'lgan munosabat, og'zaki va yozma nutqlardagi xatolarni ko'rib qanday ahvolga tushardi, deya o'ylanib qolasan, kishi. "Til — millatning qalbi. Til — g'oya, tuyg'u, tafakkurning jonli mujassamidir", degan edi buyuk adib Lev Tolstoy. Bugun tilimiz millat g'ururi, tafakkurning jonli mujassami bo'lyaptimi?

Televizor qo'yamiz: to'rt-besh yosh-yalang chiqib so'zlarni buzgan holda shevada talaffuz qiladi. "Hoy, to'xta!" deyidigan mard yo'q. Me'daga tegib ketadigan reklama va e'lonlardagi tilbuzarlarning xatolarini aytmaymizmi?

Hozir kitob chiqarish bamosoli musobaqaga aylangan. Nashriyotdagi kitob chop etmoqchi bo'lganlarni quchoq ochib kutib oladi. Lekin "chalajon", "garib" kitoblarni varaqlab dod deysiz! Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar va muloqotlar tilni buzish emas, balki yer bilan yakson qilishning yuqori cho'qqisiga chiqdi. Chunki ularni hech kim nazorat qilmaydi. Boshqacha aytganda, tilni bilganlar emas, tili borlar gapiryapti.

So'zlarni buzib, noto'g'ri talaffuz etayotganimiz, ijtimoiy tarmoqlar, televideniye, radio, OAV hamda kitoblardagi imloviy xatolar, g'aliz jumalar tilimizni behurmat qilishdan boshqa narsa emas.

Vaholanki, u serjilo, jozibador, boy. "O'zbek tili kambag'al til emas, balki o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar", degan edi bundan yuz yillar ilgari Abdulla Qodiriy. Nazarimizda, hozir Qodiriydek, Mustaqim Mirzayevdek tilimiz fidoyilari yetishmayotganday...

Maxfirat ATOYEVA, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

Advertisement for 'Xalq so'zi' newspaper, including contact information, subscription rates, and a QR code for more details.